

HOZIRGI KUN PEDAGOGIKASIDA GO‘ZALLIK VA TABIATNING ARDOQLANISHI

Norboev Urazali Murordovich

Jizzax politexnika instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada pedagogikada axloqiy go‘zallik bilan bir qatorda tashqi go‘zallik – til, do‘stlik, kiyim-kechak, yuz, ko‘z, ovqatlanish, choy ichish, ziyorat qilish, uxlash, jamoat joylarda odob-axloq qoidalariga ham e’tibor berilishi zarurligi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, ma’rifat, odob, ahloq, tabiat, go‘zallik, mehr, muruvat, shavqat, urf-odat, meros.

УВАЖЕНИЕ К КРАСОТЕ И ПРИРОДЕ В СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Норбоев Уразали Мурордович

Джизакский политехнический институт

Старший преподаватель кафедры «Узбекского языка и литературы»

Аннотация: В статье высказывается мнения о том, что в педагогике необходимо обратить внимание на красоту нравственную, а также на красоту внешнюю - язык, дружбу, одежду, лицо, глаза, прием пищи, чаепитие, посещение, сон, приобретение манер поведения на публике.

Ключевые слова: образование, воспитание, духовность, просвещение, нравы, нравы, красота, доброта, доброта, страсть, традиции, наследие.

RESPECTING BEAUTY AND NATURE IN TODAY'S PEDAGOGY

Norboev Urazali Murordovich

Jizzakh Polytechnic Institute

Senior teacher of the "Uzbek language and literature" department

Annotation: The article expresses the opinion that in pedagogy it is necessary to pay attention to moral beauty, as well as to external beauty - language, friendship, clothes, face, eyes, eating, drinking tea, visiting, sleeping, acquiring manners in public.

Keywords: education, upbringing, spirituality, enlightenment, manners, morals, beauty, kindness, kindness, passion, tradition, heritage.

O‘zbek xalqi azaldan go‘zallikning, tabiatning haqiqiy shaydosi bo‘lgan, uni e‘zozlagan va ardoqlagan. Har qanday go‘zallikdan zavqlangan va go‘zallik

yaratishga intilgan. Bolalarda go‘zallik to‘g‘risidagi dastlabki tushunchalar ularni o‘rab turgan tevarak-atrofdagi turmush ashyolari: kiyim-kechak, o‘yinchoqlar, oila a‘zolarining o‘zaro madaniy, samimiy munosobatlari, saranjom hovli, gulzor, san‘at asarlari, musiqa, ashula, rasm asosida tarkib toptiriladi [1].

Oila – go‘zallikning birinchi maktabi. Oila a‘zolarining o‘zaro munosobati, uyning jihozlari, o‘sha narsalarning uyg‘unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom-sarishtalik bolaning go‘zallikka munosobatini tarbiyalaydi.

Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go‘zal bo‘lsagina haqiqiy go‘zallik, kamolotga erishishi mumkin. Orastalik va ozodalik eng olijanob go‘zallikdir. Siyratini go‘zal sifat va xulqlar bezamagan odam, qanchalik chiroyli kiyinmasin, baribir ko‘rkam bo‘la olmaydi.

O‘zbek xalqi go‘zallik, go‘zal tuyg‘ular, go‘zal xulq va odob to‘g‘risida o‘z qarashlariga, mezonlariga ega. Bu qarashlarni xalq og‘zaki ijodi misolida ko‘rish mumkin. O‘zbek xalq ertaklari va dostonlari o‘ziga xos o‘zbekona go‘zal siymolarga boy [2].

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ertaklar kuchi, ayollar go‘zalligi ideal sifatida kuylanadi. Shuning uchun ham ularda ko‘pincha ajoyib pahlavonlar, tengi yo‘q go‘zallar gavdalanadi. Ertak va dostonlarda tasvirlangan qiz va ayollarning husni-jamoli kishini shunchalik hayratga soladiki, ertak qaxramonlari ularni ko‘rgan zahoti lol bo‘lib qoladilar. Chunki qizlar oy desa oyday, kun desa kunday, ko‘zi yulduzday, qoshi qunduzday, o‘zi hurday, tishlari durday, yuzi qaymoqday, og‘zi o‘ymoqday, qomati nihoday, beli qilday, suv ichsa tomog‘idan, sabzi yesa biqinidan ko‘rinadigan nozik – navnihol go‘zal qilib tasvirlanadi, xalq og‘zaki ijodida. Yigitlar esa, “Na’ra tortsa qular tog‘lar cho‘qqisi, tikilsa quriydi daryoning gumi”, “To‘qson qo‘yning terisidan telpagi, sarhovuzdan katta uning kosasi” kabi mubolag‘alar bilan nihoyatda kuchli, pahlavon qilib tasvirlanadi [3].

Xalq qahramonlari nafaqat tashqi go‘zalligi, balki ichki dunyosi – xulqi, odobi, aqli, farosati bilan ham kishini maftun qiladigan darajada go‘zal qilib tasvirlanadi.

Xalq o'z qahramonlarini ahloqli, aqlli, or-nomusli, g'ururli, oriyatli, sadoqatli va saxovatli kishilar timsolida gavdalantiradi, ko'z o'ngimizda.

Xalq sevgi va burchga sodiqlik, or-nomus uchun kurashni har doim rag'batlantirib kelgan. Bu sifatlar yoshlarda go'zal ahloqiy sifatlarni tarbiyalash maqsadida qo'llanilgan.

Go'zal hislarni tarbiyalashning eng muhim vositasi – bu tabiatdir. Xalq ertaklarida bolalar o'sib katta bo'lgan tabiatdan olingan narsalar va ko'rinishlar ko'p. Ular bolalarning bilim darajalarini, ularning aql-idroki, zehning o'tkirligini xuddi oynadek aks ettiradi, bolalarda go'zal tuyg'ularni tarbiyalaydi [4].

Ota-onalar bolalarda tabiatga havas tuyg'usini o'stirish, ularni foydali odatlarga o'rgatish maqsadida uyqu oldidan ularga cho'pchaklar aytishgan. Shu yo'l bilan ular bolalarni atrof-muhit, tog'lar, qir-adirlar, daryolar, hayvonlar, parrandalar bilan tanishtirgan. Bolalar yilning to'rt fasli, tabiat hodisalari, yaxshi va yomon xulqli odamlar haqida tasavvurga ega bo'lganlar.

Tabiat go'zallik timsolidir. Ona tabiat xalq uchun o'ziga xos betakror ilhom manbaidir. O'tmishda ota-bobolarimiz bolalarni tabiat bilan tanishtirish, tabiat hodisalari orqali tabiatga, uning go'zalligiga havas, tabiatni e'zozlash va go'zallik yaratishga ishtiyoq uyg'otishgan.

Bolalarda go'zallik hissini, tabiatga muhabbatni tarbiyalashda hadislar ham muhim tarbiya vositasi hisoblanadi.

Hadislarda ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabi go'zal xislatlar ulug'lanadi: «Yaxshi siyrat, chiroyli hay'at va har bir ishda iqtisodchilik yetmish xislatdan bir bo'lagidir» deyiladi hadislarda [5]. (468 - hadis).

Yaxshi siyrat – yaxshi muomala, chiroyli hay'at – bu tashqi ko'rinishni yaxshilab yurish, iqtisod – har bir harakatda me'yorni ko'zlash tushuniladi.

Bolalarda go'zallikka munosabatni tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining asarlari, ularning fikrlari ham salmoqli o'rinni egallaydi.

Buok mutafakkir Abu Rayhon Beruniy uyg'unlikni go'zallik va nafosatning asosi deb hisoblaydi. U kishining ichki dunysi bilan tashqi go'zalligi, turmush tarzidagi go'zallikning uyg'un bo'lishini talab etgan. Я'ni insonning kiydigan

kiyimidan tortib, kundalik turmushdagi yorish-turishi, soʻzi, qalbi, qilgan ishi – hammasining goʻzal boʻlishi kerakligi taʼkidlanadi.

Har bir kishida sharm-haë, ozodalik, nafis did, iffat, latofat, shirinsuxanlilikning tarkib topishi turmushning yanada goʻzal boʻlishiga olib keladi.

Beruniy inson ham ichki, ham tashqi tomondan goʻzal boʻlsagina, haqiqiy kamolotga erishishi mumkin, deydi.

A.Avloniy aytganidek: “Haë dilni ravshan qiladurgan bir nurdiki, inson har vaqt shu maʼnaviy nurning ziëiga muhtojdir. Iffatning pardasi, vijdonning niqobi haëdir” [6]. Demak, insoniyat oʻlchovining eng goʻzal namunasi haë va adabdir. Insonning haë tuygʻusi uning ahloqiy goʻzalligi bilan oʻlchanadi. Zero, oʻzbek xalqi jahonda haësi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham biz haësizlikdan uzoqlashaylik.

Ota-bobolarimiz bolalarni goʻzal xulqli, muhabbatda sodiq, sharmu haëli, sabru qanoatli, shirin soʻz va tavozeʼli qilib tarbiyalashga harakat qilganlar.

Pedagogikada bolalarda goʻzallikka havas tuygʻularini oʻstirishda ularning ahloqiy goʻzallik bilan birga, tashqi goʻzallikka – til, doʻstlik, kiyinish, yoz, koʻz, taom eyish, choy ichish, ziërat, uyqu, koʻpchilik oʻrtasida oʻzini tutish odoblarini egallashlariga ham ahamiyat suhbatlari, shaxsiy namunalari berganlar. Bunda kattalarning bolalar bilan muhim rol oʻynaydi.

Xulosa oʻrinda shuni aytib oʻtish joizki, oʻzbek xalqi oʻgʻil va qizlarda goʻzallikka havas hissini tarbiyalashda musiqa, qoʻshik, ertak, dostonlar, donishmandlar hikmati va oʻyinlaridan foydalangan.

FOYDALANILGAN ADABIËTLAR:

1. B.N.Gapparov “NamDU ilmiy axborotnomasi” jurnali. Namangan. 2021 yil, 6-son, 501-504 betlar. // B.N. Gapparov "NamDU Scientific Bulletin" magazine. Namangan. 2021, Issue 6, Pages 501-504.
2. B.N.Gapparov “NamDU ilmiy axborotnomasi” jurnali. Namangan. 2022 yil. 3-son, 664-668 betlar. // B.N. Gapparov "NamDU Scientific Bulletin" magazine. Namangan. 2022 year. Issue 3, pp. 664-668.
3. G.A.Haydarova, K.U.Pardaeva, B.N.Gapparov “Xalq pedagogikasi”, “Tafakkur” nashriëti, Toshkent. 2009 yil, 250-253 betlar. // G.A.Haydarova,

- K.U.Pardaeva, B.N.Gapparov "People's Pedagogy", "Tafakkur" publishing house, Tashkent. 2009, pp. 250-253.
4. B.N.Gapparov NamDU ilmiy axborotnomasi. Namangan. 2022 yil. 4-son, 609-612 betlar. // B.N. Gapparov scientific newsletter of NamSU. Namangan. 2022 year. Issue 4, pp. 609-612.
 5. Imom Ismoil al-Buxoriy «Al Adab al-Mufrad» (“Adab durdonalari”), Toshkent – 1990 yil, 137 – bet. // Imam Ismail al-Bukhari "Al Adab al-Mufrad" ("Masterpieces of manners"), Tashkent - 1990, p. 137.
 6. A.Avloniy. Turkiy guliston ehud ahloq. Toshkent, O‘qituvchi, 1992 yil, 31-bet. // A.Avloni. Turkish culture and ethics. Tashkent, Teacher, 1992, p. 31.